



Sifat sohasidagi siyosat

Tasavvur: “MONOLITH ASIA” MChJ XK – payvandlash materiallari sohasidagi mahsulotlarning yuqori sifati kafolatidir.

Missiya: ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarishga jarayonli yondashuv va boshqaruvga tizimli yondashuv ishlatish hisobiga iste'molchilarni eng yuqori va barqaror sifatga ega bo'lgan payvandlash materiallari bilan ta'minlash.

Sifat menejmenti tizimining strategik maqsadlari:

- sifat menejmenti tizimini doimiy ravishda takomillashtirish, ISO 9001:2015 bo'yicha barcha jarayonlarni amalga oshirish, bu esa ularning uzluksiz va samarali ishlashini kafolatlaydi;
- mahsulotlarning barqaror yuqori sifatini saqlab turish;
- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar va yangi uskunalarni qo'llash;
- yangi bozorlarni o'rganish, biznes ufqlarini kengaytirish uchun mahsulotlarni ko'rgazmalarda taqdim etish;
- iste'molchining maksimal qoniqishini ta'minlash va uning ishonchini saqlab qolish uchun mahsulotlar turlarini ko'paytirish;
- nomuvofiqliklarni bartaraf etish va sifat menejmenti tizimini doimiy ravishda yaxshilash maqsadida sifat ko'rsatkichlarini tizimli tahlil qilish hisobiga korxona intizomini oshirish;
- yetkazib beruvchilar va mijozlar bilan sheriklik munosabatlarni rivojlantirish;
- resurslarni samarali boshqarish, atrof muhitni asrab-avaylash, yuqori malakali xodimlarni tanlash va tayyorlash.

Sifat sohasidagi siyosat:

- sifat menejmenti tizimini doimiy takomillashtirish va yaxshilash;
- kompaniyaning asosiy tamoyillarini nazorat qilish: samaradorlik, tejamkorlik va ish unumdorligi;
- yagona mexanizm sifatida kompaniyaning barcha bo'linmalarining o'zaro moslashgan harakatlari hisobidan amalga oshiriladi.

“MONOLITH ASIA” MChJ XK belgilangan maqsadlarga erishish uchun Sifat sohasidagi siyosat ustidan nazoratni amalga oshiradi va uni amalga oshirish va kompaniyani tegishli resurslar bilan ta'minlash uchun shaxsan javobgar bo'ladi, kompaniyaning barcha faoliyat yo'nalishlarida xavflar ta'sirini qisqartirish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

“MONOLITH ASIA” MChJ XK

Rahbari

2025 yil “03” yanvar



S.V.Kravets